

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KATTAYEVA GULNOZA NORQULOVNA

**OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQ-GRUNT
QOPLAMLARINING GENETIK, EKOLOGIK-MELIORATIV
XUSUSIYATLARI (g'arbiy qismi misolida)**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) of
biological science**

Kattayeva Gulnoza Norqulovna

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-grunt qoplamlarining genetik, ekologik-
meliorativ xususiyatlari (g'arbiy qismi misolida)..... 3

Каттаева Гулноза Норкуловна

Генетические, эколого-мелиоративные особенности почво-грунтов
обсохшего дна Аральского моря (на примере западной части)..... 21

Kattaeva Gulnoza Norqulovna

Genetic, ecological and meliorative features of the dry bottom of the Aral Sea
(in the example of the western part)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KATTAYEVA GULNOZA NORQULOVNA

**OROL DENGIZI QURIGAN TUBI TUPROQ-GRUNT
QOPLAMLARINING GENETIK, EKOLOGIK-MELIORATIV
XUSUSIYATLARI (g'arbiy qismi misolida)**

03.00.13 – «Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/B855 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasida (www.soil.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismonov Abdurahob Jo'rayevich
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponetlar:

Artiqova Xafiza To'ymurodovna
biologiya fanlari doktori, professor
Buxoro davlat pedagogika instituti

Mirzambetov Abdurashit Bazarbayevich
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «23» 04 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz.

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (95 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «08» 04 kuni tarqatildi.

(2024-yil «08» 04 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.M.Bobomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyoda tuproqlarining uchdan bir qismi eroziya, sho‘rlanish, ifloslanishi hamda boshqa salbiy jarayonlarni ta’sirida 33 foizi degradatsiyaga uchragan. Agar shu zaylda davom etadigan bo‘lsa 2050 – yilga borib 90% maydon degradatsiyaga uchraydi. Hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha degradatsiyadan ko‘rilayotgan yillik zarar 490 milliard dollarni tashkil etmoqda. Tuproqlar degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanish ta’siridan 100 dan ortiq mamlakatlarda 2,6 milliard odam aziyat chekmoqda. Bu esa yer yuzining 33 foizdan ko‘prog‘iga ta’sir qiladi»¹. Shuning uchun ham Orol dengizi qurigan tubida shakllanayotgan avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlarning genetik, ekologik-meliorativ holatlarini aniqlash orqali ularni yaxshilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Dunyo bo‘yicha tuproqlarning eroziya, sho‘rlanish, botqoqlashish, ifloslanish, gumus va oziqa moddalarining kamayishi kabi salbiy jarayonlar ta’sirida degradatsiyalanishi va bu jarayonlarning qishloq xo‘jaligiga va atrof-muhitga yetkazayotgan zararini o‘rganish, ularni oldini olish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha bir qator ustivor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tuproq-gruntlarning genetik, ekologik-meliorativ holatini tahlil qilish, tuproq-grunt xossalari aniqlash, yerlardan samarali foydalanishga doir ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tabiiy muhitning inson faoliyati ta’siri natijasida o‘zgarishi, mahalliy va mintaqaviy ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgan degradatsiya jarayonlarini yumshatishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida «...tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash tizimini takomillashtirish»² bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham, Orol dengizi qurigan tubida shakllanayotgan tuproq-gruntlarning xossasusiyatlarini aniqlash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, yumshatish, Orol dengizi hududida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish va yer resurslaridan samarali, oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2018-yil 16-oktabrdagi PQ-3975-son «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orol bo‘yi xalqaro innovatsiya markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi 132-son «Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda yashil qoplamalar - himoya o‘rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti

¹ <https://www.google.com/search?q=%D0%94%>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni

muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Orol dengizining qurigan tubi, tuproq-grunt qoplamlarining meliorativ-ekologik holati, tuproq hosil boʻlishi va tuproq-gruntlarida tuz toʻplanish jarayonlarini oʻrganish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini xorijiy olimlardan T.K.Tomina, V.A.Kovda, F.Xyuffler, Ye.I.Pankova, A.I.Butakov, L.S.Berg, N.V.Oreshnikova, P.V.Krasilnikov, S.A.Shoba, A.I.Ginzburg, L.Jiang, Sh.Huang, Xi Chen, Cun Chang, Tie Liu, Yue Huang, De Maeyer, Z.Hu, J.Zhang, Y.Su, H.Oberhansli, P.Zavialov, S.Feng, Yoshinobu Kitamura., R.Indoitular hamda respublikamiz olimlaridan R.Q.Qoʻziyev, B.J.Jolibekov, V.A.Rafiqov, Z.B.Novitskiy, V.Ye.Sektimenko, A.J.Ismonov, Sh.M.Bobomurodov, N.Yu.Abdurahmonov, M.M.Toshqoʻziyev, N.A.Sitovich, M.E.Saidova, G.V.Stulina, T.A.Abdraxmonov, A.U.Axmedov, B.R.Ramazonov, A.B.Mirzambetov va boshqa bir nechta olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Lekin, Orol dengizi qurigan tubi tuproq-grunt qoplamining genetik, meliorativ-ekologik xossa-xususiyatlariga oid ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining PZ-2020112811-raqamli «Geoaxborot texnologiyalari asosida Orol dengizi qurigan tubida degradatsiyaga uchragan tuproqlarning ekologik-meliorativ holatiga oid oʻrta masshtabli tuproq kartasini yaratish» (2022-2024 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orol dengizini qurigan tubi tuproq-grunt qoplamlarining, genetik xossa-xususiyatlari va ekologik-meliorativ holatini aniqlash va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Orol dengizini qurigan tubida shakllangan tuproq-gruntlarining morfo-genetik xususiyatlarini tadqiq qilish;

dengizning qurigan tubi tuproq-gruntlaridagi tuz zaxiralari va ularning tarqalishlarini oʻrganish, ekologik-meliorativ holatini aniqlash;

Orol dengizi qurigan tubida shakllanayotgan tuproq-gruntlarning fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalarni aniqlash;

dengizini gʻarbiy qismining 1:200000 masshtabli «Tuproq-grunt», «Tuproq-grunt shoʻrlanishi» xaritalarini hamda «Zaharli tuzlar zaxirasi» kartogrammasini tuzish;

Orol dengizini gʻarbiy qismida sodir boʻlayotgan degradatsiya jarayonlarni tahlil qilish va takliflar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Orol dengizining qurigan tubi gʻarbiy qismi hududidagi turli darajada shoʻrlangan qumli choʻl, taqirsimon, qoldiq botqoq, qoldiq oʻtloqi, marsh shoʻrxok, qoldiq shoʻrxok, tipik shoʻrxok, oʻtloqi tuproq-gruntlari

xizmat qilgan.

Tadqiqotning predmeti Orol dengizining qurigan tubida tuproq-gruntlarning xossa-xususiylari, saholanish jarayoni ta'sirida o'zgarishi, agrokimyoviy xossalari, sho'rlanish darajasi, tipi, yer osti suvlarining chuqurligi va minerallashganligi hamda tuproq-gruntlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tuproq tadqiqotlari tuproqshunoslikda umumqabul qilingan: genetik-geografik, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil, dala, kameral va kartografik usullaridan foydalanilgan. Bunda «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnomasi», tuproq xaritasi va dala tadqiqotlarini olib borish bo'yicha «Почвенная съемка» qo'llanma asosida, kimyoviy tahlil ishlari «Агрехимические, агрофизические и микробиологические исследования почв и растений», Ye.V.Arinishkinaning «Руководство по химическому анализу почв» qo'llanmasi asosida, ma'lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» o'quv qo'llanmasida keltirilgan dispersion uslubi bo'yicha hamda «Microsoft Excel» dasturi yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Orol dengizining qurigan tubida shakllanayotgan tuproq-gruntlarning «birlamchi» tuproq paydo bo'lish jarayonlari profili morfo-genetik belgilarga ko'ra ajratilgan;

avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlarning saholanishi natijasida transformatsiyasiga va sho'rxoklarning paydo bo'lishiga olib kelayotganligi asoslangan;

dengizning qurigan g'arbiy qismida shakllanayotgan tuproq-gruntlarida singdirilgan natriy va magniyning ulushi sho'rxoklarda tadqiqot olib borilgan tuproq-gruntlariga nisbatan ko'pligi, hududning katta maydonida sho'rtoblanish jarayonlarini keltirib chiqarayotganligi aniqlangan;

hududda shakllangan qoldiq botqoq, qoldiq o'tloqi, taqirsimon va qumli cho'l tuproqlarda umumiy tuzlar miqdori aniqlangan, sizot suvlari yuzaga yaqin kelgan hududlarda shakllanayotgan tipik sho'rxoklardan, marsh sho'rxoklari tomon tuzlarning zaxirasini ortib borishi ilmiy asoslangan;

dengizning qurigan tubi tuproq-gruntlaridagi sizot suvlari sathi, mineralizatsiyasi, sho'rlanish ximizmi, gipotetik tuzlar tarkibidagi zaharli va zaharsiz tuzlar ulushi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orol dengizi qurigan tubining g'arbiy qismi saholanishga uchragan tuproq-gruntlarining 1:200000 masshtabda «*Tuproq-grunt xaritasi*» ishlab chiqilgan;

dengizning suvlari chekingan g'arbiy qismidagi degradatsiya jarayonlariga jadal uchragan tuproq-grunt qoplamlarining 1:200000 masshtabda «*Tuproq-gruntlari sho'rlanish xaritasi*» yaratilgan;

dengiz suvlarini chekinishi oqibatida avtomorf va gidromorf tuproq-grunt qoplamlarining 1:200000 masshtabda «*Zaharli tuzlar zaxirasi kartogrammasi*» tuzilgan;

Orol dengizi g'arbiy qismi avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlaridan samarali foydalanish, ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, tiklash va mo'tadillashtirishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda dala, laboratoriya, kameral va umumqabul qilingan usullaridan foydalanilganligi, matematik-statistik tahlil qilinganligi, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy va amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan nufuzli xorijiy va mahalliy jumallarda chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, global iqlim o'zgarishi sharoitida tuproq-gruntlarning birlamchi tuproq paydo bo'lish jarayonlarida morfo-genetik belgilarga ko'ra ajratilganligi, avtomorf tuproq-gruntlarning saholanishi, transformatsiyasiga va sho'rxoklarning paydo bo'lishiga olib kelayotganligi, dengizning qurigan qismida shakllanayotgan tuproq-gruntlarida singdirilgan natriy va magniyning ulushi sho'rxoklarda nisbatan ko'pligi hududning katta maydonida sho'rtoblanish jarayonlarini keltirib chiqarayotganligi, dengizning qurigan tubi sizot suvlari sathi va minerallashtirilganligi, sho'rtoblanish ximizmi, gipotetik tuzlar tarkibidagi zaharli va zaharsiz tuzlar ulushini ortib borishi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi uchun tuzilgan tuproq-grunt, tuproq-gruntlari sho'rtoblanish xaritalari hamda zaharli tuzlar zaxirasi kartogrammasini tuzilganligi, dengizdagi avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlaridan samarali foydalanish, ekologik-meliorativ holatini yaxshilash asosida hudud tuproq-gruntlarini degradatsiyadan saqlash, muhofazalash, mo'tadillashtirish, yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi Orol dengizi qurigan tubining g'arbiy qismida shakllangan tuproq-gruntlarni genetik va ekologik-meliorativ xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Orol dengizi qurigan tubining 1273456,37 gektar yer maydonida 1:200000 masshtabli «Tuproq-grunt xaritasi» Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga amaliyotga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu kartografik ma'lumot asosida hududni degradatsiyadan saqlash va qayta tiklash, muhofazalash hamda yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlash imkonini bergan;

Orol dengizi qurigan tubining g'arbiy qismini 1273456,37 gektar yer maydonida 1:200000 masshtabli «Tuproq-grunt sho'rtoblanish xaritasi» Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son ma'lumotnomasi). Natijada, Orol dengizi qurigan tubidagi avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlarini meliorativ holatiga oid ma'lumotlar

asosida, degradatsiyaga qarshi ihotat oʻrmonzorlarini barpo etishda hamda shoʻrlanganlik darajasiga koʻra joylashtirish imkonlarini yaratgan;

Orol dengizi qurigan tubining gʻarbiy 1273456,27 gektar yer maydonida 1:200000 masshtabli «Zaharli tuzlar zaxirasi kartogrammasi» Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligiga amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpogʻiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligining 2023-yil 03-iyul 01/01-2362-son maʼlumotnomasi). Natijada, zaharli tuzlar tarqalgan hududlar va yer osti sizot suvlari sathini hisobga olgan holda ihotat oʻrmonzorlari maydonlarini joylashtirish orqali hududning ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda maʼruza qilingan hamda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar 8 ta, jumladan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida oʻtkazilgan ilmiy-tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotni ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarni nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Orol dengizi qurigan tubida tarqalgan tuproq-grunt qoplamlarining oʻrganilganlik darajasi**» deb nomlangan birinchi bobida Orol dengizi qurigan tubi, suvdan boʻshagan hududlarda tarqalgan tuproq-gruntlarning xossa-xususiyatlari, tuproq hosil boʻlish jarayoni, unumdorligi, tuproq-gruntlarning shoʻrlanishi va melioratsiyasiga xos muammolar, ularda sodir boʻlgan oʻzgarishlar, hududda hosil boʻlayotgan tuproq-gruntlarining shoʻrlanish jarayonlari va bir qancha xossa-xususiyatlari boʻyicha mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili keltirilgan. Adabiyotlar tahlilining yakunida Orol dengizini qurigan tubida shakllanayotgan tuproq-gruntlarining meliorativ holati boʻyicha hamda shoʻrtoblanish, saholanish, qurgʻoqchilik, degradatsiya jarayonlari boʻyicha va GAT texnologiyalari, iqlim oʻzgarishi, tuproqlarda kechayotgan ekologik inqirozi toʻgʻrisida muammolar, xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tuproq-grunt qoplamlarining tabiiy-geografik sharoitlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tabiiy-iqlimiy sharoitlari, Orol dengizining paydo boʻlishi va geologiyasi, litologik tuzilishi va relyefi, oʻsimliklar

dunyosi, inson omilining ta'siri, tadqiqot obyekti va tadqiqot uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi, Qoraqalpog'iston Respublikasini Qo'ng'iro't tumani bilan, janubdan esa Mo'ynoq tumani bilan chegaradosh. Geografik jihatdan turon pasttekisligida joylashgan, Amudaryoning oldingi tirik deltasiga tutash Ustyurt platosini o'z ichiga oladi. Orol dengizi asosan to'rtlamchi davr yotqiziqlari davrida vujudga kelgan bo'lib alluvial va dengiz ko'l yotqiziqlaridan tashkil topgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi tuproq-gruntlari tanlangan. Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismidagi avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlari kiradi. Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi 1273456,37 gektar bo'lib, hududda taqirsimonlar 2,56%, qoldiq o'tloqlar 3,9%, o'tloqlar 0,15%, qumli cho'l tuproqlar 14,0%, qoldiq botqoqlar 2,0%, qoldiq o'tloqi sho'rxoklar 8,0%, marshlar 6,5%, qoldiq sho'rxoklar 9,2%, tipik sho'rxoklar 16,7%, marsh sho'rxoklar 29,3%, qoldiq ko'llar 0,7% va qumli yaralmalar 6,99 foizni tashkil etadi.

Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart usulblar bo'yicha amalga oshirildi. Tuproq namunalarini olish va laboratoriya tahlil ishlari «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo'yicha yo'riqnoma» si bo'yicha, Ye.V.Arinushkinaning «Руководство по химическому анализу почв» hamda ТАТIning «Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель» qo'llanmalarida ko'rsatilgan usulblar asosida, olingan ma'lumotlarning matematik-statistik tahlillari B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo'llanmasi va «Microsoft Exsel» dasturi yordamida dispersion uslub asosida bajarildi.

Dissertatsiyaning «**Tuproq-grunt qoplamlarining umumiy tavsifi va kimyoviy xossalari**» deb nomlangan uchinchi bobi tuproq-grunt qoplami va sistematikasini hozirgi holati va ularni morfogenetik tuzilishi, mexanik tarkibi, avtomorf va gidromorf tuproq-gruntlarini morfologiyasi, ekologik-meliorativ holati, zaharli tuzlar zaxirasi va tuproq hosil bo'lishida yer osti va yer usti suvlarining ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Shu bobning *Tuproq-gruntlarining morfo-genetik xususiyatlari* deb nomlangan paragrafida Orol dengizi hududida shakllanayotgan tuproq-gruntlaridan qumli cho'l, taqirsimon, qoldiq botqoq, qoldiq o'tloqi, marsh tuproq-gruntlari, marsh sho'rxok, qoldiq sho'xok, tipik sho'rxoklarning morfologik belgilari hamda morfo-genetik xususiyatlariga doir izlanish natijalari keltirilgan.

Marsh sho'rxoklari o'z rivojlanish bosqichlarida marsh tuproq-gruntlari marsh sho'rxoklariga (qatqaloqli) aylanib o'tganligi kuzatildi. Chunki, o'tloqi yoki botqoq tuproqlarga aylanib o'tishi uchun marsh tuproq-gruntlarida o'simliklar o'smaydi va tabiiy ravishda ularni qoldiqlari tuproqqa aralashmaydi. Marsh sho'rxoklar dengizdan 1,5-2,0 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, yuzasi mayin qumlardan iborat. Ma'lum miqdorda namlikka ega qatlam, quyiga borgan sari qum aralash gleyli botqoq rangi, tuz aralashgan va sizot suvlari 0,7-1,20 sm oralig'ida muallaq turadi.

Tuproq-grunt qoplamlarining mexanik tarkibi deb nomlangan paragrafida tadqiqot obyektidagi tuproq-gruntlarini mexanik tarkibi keltirilgan, Amudaryoning allyuvial yotqiziqlaridagi turli o'lchamdagi mexanik fraksiyalar (jins) miqdori keng oraliqda tebranib turadi: qumli fraksiyalarning eng yuqori miqdori va loyli fraksiyalarning eng kam miqdorlari qumlarda, qumloqlarda va qisman yengil qumoqlarda kuzatiladi. Loyli fraksiyalarning eng yuqori va qumli fraksiyalarning eng kam miqdorlari og'ir tuproqlarda qayd qilindi.

Taqirsimon tuproq-gruntlarining ustki qatlamini mexanik tarkibiga ko'ra, asosan loylardan iborat bo'lib, fizik loy ($<0,01$ mm) zarrachalari 10,3-65,2 foiz oralig'ida aniqlandi. Taqirsimon tuproq-gruntlarida esa (0,05-0,01) yirik chang zarralari 25,4-56,4% atrofida tebranib, boshqa zarrachalarga nisbatan ko'p ekanligi qayt etildi.

Hozirda sho'rxoklar Orol dengizi qurigan tubida katta maydonlarni egallagan bo'lib fizik loy ($<0,01$ mm) zarrachalar 18,3 foizdan 71,6 foiz oralig'ida kuzatiladi. Bunda og'ir mexanik tarkibli yotqizilardan tuzilgan. Sho'rxoklarda (0,05-0,01) yirik chang zarrachalari 13,5-41,3% atrofida, mayda chang (0,005-0,001) zarrachalari 11,1-32,6% atrofida, loy va og'ir qumoqlarda ushbu zarracha ustunlik qiladi.

Qoldiq sho'rxoklarda ham fizik loy ($<0,01$ mm) miqdori yuqori 27,8% dan 70% atrofida bo'lib, dengiz suviga tomon tuproq-gruntlarining mexanik tarkibi og'irlashib boradi va loylardan tashkil topadi. Yirik chang zarrachalari (0,05-0,01) 23,1-56,4% atrofida boshqa zarrachalardan ustunlik qiladi. Orol dengizining qurishi natijasida hosil bo'lgan keng quruqliklarda tuproq-gruntlari, hozirda boshlang'ich taraqqiy etish bosqichini boshdan kechirmoqda.

Marsh sho'xoklar dengiz qirg'og'idan 1,5-2,0 km masofada dengiz bo'yida tarqalgan. Mexanik tarkibiga ko'ra, fizik loy miqdori 6,4%-13,5% atrofida bo'lib, qum va qumloqlardan tashkil topgan. Marsh sho'rxoklar mexanik tarkibida qum zarrachalari ko'p ekanligi, ya'ni yirik qum ($>0,25$ mm) zarrachalari yuqori qatlamlarda 40,0-56,7% atrofida, uning miqdori pastga tomon kamayib boradi.

Shu bobning *Tuproq-gruntlarining meliorativ holati* deb nomlangan paragrafida, Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarining sho'rlanish darajasi, suvda oson eruvchi tuzlarning miqdori to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi turli darajada sho'rlangan bo'lib, sho'rlanish ximizmiga ko'ra, xloridli, xlorid-sulfatli, sulfat-xloridli va ba'zan sulfatli ekanligi aniqlandi. Tadqiqot olib borilgan hududning katta qismida xloridli sho'rlanish tipiga mansub.

Orol dengizi qurigan tubining katta qismida tipik sho'rxoklar tarqalgan bo'lib, quruq qoldiq miqdori 3,585% dan 9,198% gacha, xlor ioni 1,138-3,514% ni, sulfat ioni 0,507% dan 1,880% gacha, natriy ionining miqdori esa 0,805-2,197% oralig'ida tebranadi. Sho'rxoklar sho'rlanish tipiga ko'ra asosan xloridli. Tadqiqot olib borilgan taqirsimon tuproq-gruntlar turli darajada sho'rlangan bo'lib, tuz yuqori qatlamda to'plangan va NaCl ustunlik qiladi.

Quruq qoldiq miqdori 1,220-2,155% oralig'ida, sho'rlanish tipi xloridli goho sulfat-xloridli tipida. Sulfat ioni 0,084-1,005% va xlor ioni 0,014-1,005 foizni

tashkil etadi. Sho'rlanishlarda quruq qoldiq tuproq profilida turli tebranishlarda bo'lib, asosan ustki qatlama tuzlar to'planganini kuzatildi (1-jadval). Qumli cho'l tuproq-gruntlar sho'rlanish darajasiga ko'ra quruq qoldiq miqdori 0,120-1,805% atrofida bo'lib tuz miqdori janubdan shimolga tomon ortib, sho'rlanish kuchayib boradi.

O'rganilgan Orol dengizi hududning 62 foizi juda kuchli sho'rlangan, 23 foizi kuchli, 9 foizi o'rtacha 6 foizi, kuchsiz sho'rlangan maydonlar 23 foizni tashkil etadi.

1-jadval

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarining suvda oson eruvchi tuzlar miqdori va sho'rlanish darajasi, % hisobida

Kesma №	Qatlam chuqurligi sm	Quruq qoldiq %	HCO ₃	Cl ⁻	SO ₄	Ca ⁺	Mg ⁺	Na ⁺	Sho'rlanish	
			%							Tipi
Tipik sho'rxoklar										
3IK	0-3	5,361	0,027	1,932	1,241	0,305	0,195	1,139	x	Sho'rxok
	3-35	4,905	0,030	1,264	1,386	0,315	0,105	1,131	x-s	Sho'rxok
	35-65	4,348	0,027	1,138	1,497	0,410	0,185	1,212	x	Sho'rxok
	65-100	4,700	0,033	1,971	0,758	0,155	0,165	1,164	x	Sho'rxok
	100-190	3,585	0,037	1,432	0,665	0,165	0,141	0,805	x	Sho'rxok
25K	0-16	6,871	0,030	2,807	1,208	0,345	0,231	1,578	x	Sho'rxok
	16-50	5,256	0,033	1,957	1,136	0,320	0,177	1,124	x	Sho'rxok
	50-90	4,699	0,040	1,621	1,148	0,200	0,165	1,075	s-x	Sho'rxok
	90-120	4,633	0,043	2,100	0,507	0,125	0,069	1,347	x	Sho'rxok
	120-160	9,198	0,052	3,514	1,880	0,330	0,330	2,197	x	Sho'rxok
Qoldiq sho'rxoklar										
17K	0-2	11,54	0,018	4,396	2,100	0,400	0,225	2,978	x	Sho'rxok
	2-17	3,900	0,021	1,414	0,948	0,235	0,132	0,859	x	Sho'rxok
	17-56	1,142	0,015	0,298	0,440	0,165	0,048	0,129	x-s	Sho'rxok
	56-88	1,300	0,021	0,543	0,285	0,09	0,060	0,279	x	Sho'rxok
	88-120	0,875	0,021	0,301	0,245	0,055	0,042	0,178	s-x	kuchli
	120-160	1,020	0,027	0,452	0,175	0,055	0,051	0,227	x	Sho'rxok
	160-200	0,525	0,024	0,193	0,128	0,045	0,015	0,115	x	kuchli
45K	0-18	4,923	0,040	1,246	1,582	0,360	0,135	0,926	x-s	Sho'rxok
	18-50	4,905	0,030	1,264	1,386	0,315	0,105	1,131	x-s	Sho'rxok
	50-100	3,540	0,033	1,407	1,345	0,275	0,090	0,555	x-s	Sho'rxok
	100-150	3,465	0,037	1,978	1,305	0,235	0,072	0,641	x-s	Sho'rxok
	150-200	3,365	0,030	0,620	0,680	0,175	0,054	0,676	x-s	Sho'rxok

Suvda oson eruvchan tuzlar miqdori va zaxiralari hamda ularning sifat komponent tarkiblari deb nomlangan paragrafida o'rganilgan hududdan olingan 0-100 sm li tuproq-grunt namunalari dagi, tuzlar zaxirasi keltirilgan. Bunda, qumli cho'l tuproq-gruntlarida 19,38-102,28 t/ga, shundan 9,32-80,90 t/ga zaharli va 10,81-21,41 t/ga zaharsiz tuzlarni tashkil etdi. Qoldiq sho'rxoklarda umumiy tuzlar

miqdori 237,31-612,14 t/ga, tipik sho'rxoklarda umumiy tuzlar miqdori 683,16-705 t/ga, zaharli tuzlar 556,03-574,21 t/ga, marsh sho'rxoklarda umumiy tuzlar 468,40-570,55 t/ga. Zaharli tuzlar qoldiq sho'rxoklarda 28 t/ga bo'lsa zaharsiz tuzlar zaxirasi ushbu namunalarda 69,25-208,19 t/ga ni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi tuproq-gruntlaridagi suvda oson eruvchi tuzlar miqdori (%) va zaxiralari (t/ga)

Kesma №	Chuqurligi sm	Qatlam qalinligi sm	Hajm og'irligi g/sm ³	Umumiy tuzlar		Zaharli tuzlar		Zaharsiz tuzlar	
				%	t/ga	%	t/ga	%	t/ga
Tipik sho'rxoklar									
31K	0-3	3	1,42	4,839	20,61	3,797	16,17	1,042	4,43
	3-35	32	1,42	4,829	219,42	3,797	172,53	1,042	47,34
	35-65	30	1,50	4,247	191,11	3,713	167,08	0,534	24,03
	65-100	35	1,50	3,246	170,41	2,676	140,49	0,568	29,82
	0-50	50	1,42	4,948	351,31	3,883	275,66	1,065	75,65
	50-100	50	1,50	4,425	331,87	3,738	280,37	0,686	51,48
25K	0-100	100	1,50	4,554	683,16	3,707	556,03	0,848	127,13
	0-16	16	1,48	6,2	146,81	5,021	118,89	1,179	27,91
	16-50	34	1,48	4,747	238,86	3,653	183,81	1,095	55,10
	50-90	40	1,50	4,249	254,94	3,561	213,66	0,688	41,28
	90-100	10	1,50	4,192	6,28	3,758	56,37	0,434	6,51
	0-50	50	1,48	5,238	387,61	4,111	304,18	1,686	124,74
50-100	50	1,50	4,238	317,85	3,600	270,03	1,113	83,46	
0-100	100	1,50	4,703	705,45	3,828	574,21	1,388	208,19	
Qoldiq sho'rxoklar									
17K	0-2	2	1,40	10,12	28,33	8,756	24,52	1,363	3,81
	2-17	15	1,40	3,61	75,81	2,807	58,95	0,803	16,86
	17-56	39	1,40	1,096	59,84	0,532	29,04	0,564	30,79
	56-88	32	1,44	1,279	58,94	0,969	44,65	0,31	14,28
	88-100	12	1,44	0,842	14,55	0,65	11,23	0,191	3,30
	0-50	50	1,40	2,221	155,47	1,548	108,39	0,673	47,11
	50-100	50	1,44	1,152	81,94	0,840	59,64	0,312	22,15
	0-100	100	1,44	1,671	240,62	1,183	168,03	0,488	69,25
45K	0-18	18	1,40	4,275	107,73	3,043	76,68	1,232	31,05
	18-50	32	1,48	4,035	191,09	2,957	140,04	1,077	51,00
	50-100	50	1,48	4,234	313,32	3,292	243,61	0,942	69,71
	0-50	50	1,48	4,038	298,82	2,929	216,73	1,109	82,05
	50-100	50	1,48	4,234	313,32	3,292	243,61	0,942	69,71
	0-100	100	1,48	4,140	612,72	3,110	460,28	1,025	151,7

Tadqiqot olib borilgan tuproq-gruntlaridan tipik sho'rxoklar, marsh sho'rxok va qoldiq sho'rxoklarda umumiy tuzlar yig'indisidan zaharli tuzlarni ulushi 78-89% oralig'ida aniqlandi va bunda, xlor ionining miqdori ustunlik qiladi. Orol dengizi tuproq-gruntlari tarkibida zaharli tuzlar miqdori juda yuqori bo'lib, katta hududlarni tashkil etadi. Zaharli tuzlarining ulushidan natriy xlor ustunlik qilishi kuzatildi.

Tuproq-gruntlarini paydo bo'lishida yer usti va yer osti suvlarining ta'siri deb nomlangan paragrafida yer osti suvlari ta'sirida tuproq paydo bo'lishi jarayoni keltirilgan. Bunda, yer osti suvlari dengizning qurigan tubida o'ziga xos yo'nalishda kechadi, ya'ni keltirilma jinslari qatlamlarini tuproq-iqlimiy sharoitlarni o'zgarishi hamda yer osti suvlari ta'sirida, yotqiziq agregatlarini parchalanishi, ichki nurash jarayonlarini jadal kechishi holatida yuz beradi va bu jarayonga o'simliklar olami ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kimyoviy tahlil ma'lumotlariga ko'ra, olingan sizot suvlari juda kuchli darajada minerallashganligi qayd etildi. Tuzlarning umumiy miqdori quruq qoldiq bo'yicha 56,5-183,4 g/l ni tashkil etib, shundan, xlor ioni 30,6-66,95 g/l, sulfatlar 1,30-67,2 g/l ga teng. Tahlil natijalariga ko'ra, suvda erigan kalsiy miqdori 0,50-0,75 g/l ko'rsatkichlarda. Magniy miqdori 2,19-3,50 g/l ga, natriy 16,6-44,20 g/l ni tashkil etadi va kalsiy hamda magniydan bir necha barobar yuqori (3-jadval).

3-jadval

Orol dengizi qurigan tubi sizot suvlarining joylashish chuqurligi, minerallashganlik darajasi va kimyoviy tarkibi

Chuqurlik m	Quruq qoldiq, g/l	Minerallizatsiya, % mg-ekv						pH	SO ₄	Ca+Mg	Minerallash ganlik	dara jasi
		HCO ₃	Cl	SO ₄	Ca	Mg	Na		Cl	Na		
19k												
140	56.5	1,08	30,6	1,30	0,75	3,50	16,6	7,89	0,03	0,45	X- Na	Nama kob
		17,7	862,9	27,1	37,4	287,7	721,7					
23k												
70	183.4	0,564	62,12	67,2	0,50	9,48	25,45	8,02	0,79	0,73	C-X- Mg-	Nama kob
		9,24	1751,7	1398,7	24,95	780,0	1106,5					
45k												
200	140.6	0,573	66,95	11,95	0,60	2,19	44,20	8,14	0,37	0,36	X- Na	Nama kob
		9,39	1887,9	248,8	29,49	180,2	1921,7					
O'rtacha												
136	126.8	0,739	53,22	26,8	0,62	5,05	28,75	8,01	0,32	0,93	X- Na	Nama kob
		12,11	1500	558	30,9	415,9	1250					

Sizot suvlarining joylashish chuqurligi har xil bo'lib o'rtacha 126,8 smda joylashgan. Minerallashish ximizmiga ko'ra, asosan xlorid-natriyli ekanligi aniqlandi. Tuzlar tarkibida NaCl, Na₂SO₄, MgCl miqdori ko'p bo'lib, sulfatlardan CaSO₄ va MgSO₄ tuzlari asosiy o'rinlarni egallaydi. Sizot suvining pH ko'rsatkichi 7,89-8,14 atrofida tebranib turadi.

Dengizni qurigan tubida cho'kmalar, botiqlar va berk havzalar mavjud bo'lib, ularda sizot suvlarining ta'siri, ya'ni suvning bug'lanish jarayoni jadal kechayotganligi qayd etildi. Bu tuproqlarni bevosita paydo bo'lishida ishtirok etayotganligidan darak beradi.

Orol dengizi suvidan olingan namunada juda yuqori darajada (namakob)

minerallashganligi aniqlandi. Unga ko'ra, quruq qoldiq miqdori 320,7 g/l, xlor ioni 122,4 g/l, 3440 mg-ekv, sulfat 134,4 g/l, 2798,2 mg-ekv, natriy 50,9 g/l, 2216,5 mg-ekv ni tashkil etadi. Magniy ioni 18,9 g/l, 1560 mg-ekv dan iborat (4-jadval).

4-jadval

Orol dengizi suvidan olingan namunaning minerallashganlik darajasi va kimyoviy tarkibi

Namuna	Quruq qoldiq, g/l.	Minerallizatsiya, % mg-ekv						pH	SO ₄	Ca+Mg	Mineral	
		ICO ₃	Cl	SO ₄	Ca	Mg	Na		Cl	Na	lashganlik	
									(mg-ekv)		tipi	dara jasi
Dengiz Suvi	320,7	1,12	122,4	134,4	1,00	18,9	50,9	7,61	0,81	0,73	C-X-Mg Na	Nama kob
		18,5	3440	2798	49,9	1560	2216,5					

Eslatma: * – Orol dengizi suvidan olingan, 2022 y.

Dissertatsiyaning *Orol dengizi hududidagi ekologik vaziyat* deb nomlangan paragrafda Orol dengizini chekinishi natijasida bir qancha og'ir ekologik muammolar yuzaga kelganligi nafaqat O'zbekiston balki, bir qancha mamlakatlarda ham sezilayotganligi, Orol dengizining qum-chang aerozollari Yevropa mamlakatlariga ham yetib borayotganligi, iqlimni keskin isib borishi natijasida cho'llanish va saholanish jarayonlarida Orolqum cho'li hududlari va Orol hududida ekologik muvozanatni izdan chiqishiga olib kelayotganligi hamda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini jiddiy tanazzulini keltirib chiqarayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Tuproq-grunt qoplamlarining fizik-kimyoviy va agrokimyoviy xossalari tavsifi»** deb nomlangan to'rtinchi bobida, Tuproq-gruntlarning agrokimyoviy xossalari, tuproq-gruntidagi karbonat va gipslarning tarkibi, singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismlarida tarqalgan tuproq-gruntlarning agrokimyoviy xossalari aniqlandi. Bunga ko'ra, Orol dengizidagi qoldiq botqoq tuproqlarini ustki qismida o'rtacha gumus miqdori 0,760% dan 1,12% oralig'ida, umumiy azot 0,053% dan 0,079% oralig'ida, umumiy fosfor 0,23% dan 0,32% oralig'ida va kaliy esa 0,474% dan 1,210% oralig'ida kuzatildi. O'rganilgan ushbu tuproqlarda gumusni vujudga kelish jarayonlarida o'zgarishlar yuzaga kelgan, ya'ni bu quruq iqlim sharoitlarini uzoq yillar hukmron bo'lishi oqibatida tuproqni yuqori qatlamlarida chirindini sekinlik bilan vujudga kelayotganligi qayd etildi. Harakatchan fosfor o'rtacha 3,2-32,8 mg/kg, almashinuvchi kaliy 48 mg/kg dan 513 mg/kg oralig'ida tebranib turadi.

Dengizning katta hududida tarqalgan sho'rxoklarda gumus miqdori 0,210-0,818%, umumiy fosfor 0,07-0,30%, harakatchan fosfor 11,32-30,08 mg/kg, umumiy kaliy 1,068-2,232% va almashinuvchi kaliy 187-597 mg/kg ni tashkil etadi. Bu tuproq-gruntlar gumus va harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan.

Marsh sho'rxoklar dengizdan 1,5-2,0 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, 0,30-0,70 sm oralig'ida sizot suvi chiqadi va olingan ma'lumotlar shuni ko'satadiki, pastki qismida oziqa elementlar miqdori ortib boradi. Ustki qatlamida gumus miqdori o'rtacha 0,242% dan 0,528% gacha tashkil etgan holda, pastga tomon 0,700-0,812 foizni tashkil etadi. Umumiy azot o'rtacha 0,018-0,068%, fosfor 0,24-0,32% va kaliy 0,288-0,312% atrofida yuza qismida bo'lsa, pastki qismida 1,120-1,281% tashkil etadi. Harakatchan fosfor o'rtacha 6,72 mg/kg dan 13,44 mg/kg gachani, almashinuvchi kaliy 360 mg/kg dan 600 mg/kg gachani tashkil etdi. Ushbu tuproqlar harakatchan fosfor bilan juda kam darajada, almashinuvchi kaliy bilan yetarli va juda yuqori darajada ta'minlanganligi qayd etildi.

Taqirsimon tuproqlarda gumus miqdori o'rtacha 0,190% dan 1,050 foizgachani, azot 0,013% dan 0,080% gachani, fosfor 0,08% dan 0,30% gachani va kaliy 0,774% dan 1,524% gachani, harakatchan fosfor 6,6 mg/kg dan 18,9 mg/kg gachani, almashinuvchi kaliy 180 mg/kg dan 585 mg/kg gachani tashkil etadi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, tuproqlar gumus bilan kam va o'rtacha, harakatchan fosfor juda kam va kam darajada ta'minlangan tuproqlar toifasiga kiradi.

Orol dengizi sathini pasayishi va qurib borishi, undan so'ng grunt suvlari chuqurligining pasayishi, bu mintaqada o'ziga xos quruq va yengil tarkibli tuproq-guntlarni vujudga kelishi hamda o't-o'simliklar qoplamini kam darajadali, saholanish va degradatsiya jarayonlarini yuz berishiga sabab bo'lgan. Qoldiq sho'rxoklar yalpi va harakatchan kaliy bilan yaxshi ta'minlangan. Bu jarayonni mexanik tarkibi og'irligi bilan, sho'rlangan va sho'rlanishga moyil bo'lgan tuproq-guntlarda kaliyning miqdori yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Fosfor esa umuman uning aksini ko'rsatib turibti, ya'ni kam va juda kam ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Tuproq-gruntidagi CO₂ karbonat va gipslarning tarkibi. Tuproq eritmasida CO₂ miqdorining ortishi CaCO₃ ning cruvchanligi ortishi va kalsiy karbonat qisman bikarbonatga aylanadi. Tuproq tarkibidagi HCO₃ ioning paydo bo'lishi natijasida, tuproqning ishqoriylik xususiyati ortib boradi va pH ko'rsatkichining keskin ko'tarilishi, ya'ni soda (NaCO₃) hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Orol dengizidagi qoldiq o'tloqi va qoldiq botqoq tuproqlardagi karbonatlar tarkibida CaCO₃ eng ko'p uchraydi, umumiy miqdorning 70-95 foiziga teng. Qolgan qismini asosan tuproqda dolomit shaklida uchraydigan MgCO₃ tashkil etadi. Tadqiqot olib borilgan dengizning g'arbiy qismidagi tuproq-gruntlarida, gips asosan sochilgan holatda uchradi, qumli cho'l tuproq-gruntlarida 0,125-1,584%, taqirsimon tuproq-gruntlarda 0,230-5,234%, qoldiq o'tloqida 0,124-9,762%, sho'rxoklarda 1,245-8,652% atrofida bo'lib, eng yuqori ko'rsatkich marsh tuproq-gruntlarida kuzatildi (5,123-17,288%). Asosan biz tadqiqot olib borgan hududning tuproq muhit ko'rsatgichi pH 7,79-8,25 oralig'ida, tipik sho'rxoklar, marsh sho'rxoklarda 7,94-8,66 ni ko'rsatdi.


Tuproqlarning singdirish sig'imi (singdirish kompleksi), ularning mexanik va mineralogik tarkibi, gumuslanganlik darajasi va bir qator suv-fizikaviy xossalari bilan belgilanib, sug'oriladigan tuproqlarning ishlab chiqarish qobiliyati va mahsuldorligi ko'p jihatdan uning singdirish sig'imi va singdirilgan asoslar

(kationlar) tarkibiga bog'liq.

Singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi deb nomlangan paragrafda Orol dengizida tarqalgan tuproq-gruntlarning singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi, tuproq xossalari va holatini, unumdorlik va mahsuldorlik darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanib, tuproq singdirish majmuasidagi singdirilgan magniy va natriyning kationlar umumiy yig'indisidan yuqori miqdorlarni tashkil etadi. Sho'rlangan tuproqlarda yana sho'rtoblanish jarayonini sodir bo'lishini ko'ramiz. Tadqiqot olib borilgan sho'rxok, taqirsimon va qoldiq sho'rxok tuproq-gruntlarida natriyning ulishi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Sho'rxoklarda kalsiyning miqdori 12-38 foizni tashkil etib, magniy 23% dan 53% gacha tebranib turadi. Magniyning miqdori kalsiyga nisbatan quyi qatlamlarda yuqori bo'lib 1,66 baravar ko'p. Natriyning ulushi 50% atrofida, tuproqlar asoslar bilan to'yingan hisoblanib, kaliyning miqdori 3-4% oralig'ida tebranib turadi.


Dengiz hududidagi tuproq-gruntlarning singdirish sig'imining marsh tuproq-gruntlarida 7,19-13,95 mg-ekv, qumli cho'l 6,51-9,18 mg-ekv, qoldiq sho'rxoklarda 7,66-14,07 mg-ekv, taqirsimonlarda 11,85-17,48 mg-ekv, qoldiq o'tloqlarda 8,85-12,12 mg-ekv va sho'rxoklarda esa 15,2-19,13 mg-ekv ni tashkil etadi. Tuproq qatlamlarida singdirilgan kationlar miqdori 7,19-19,13 mg-ekv 100 g bo'lib, kam va o'rtacha hisoblanadi. Tuproqlar singdirilgan kationlar tarkibiga ko'ra, kaltsiy qoldiq o'tloqi, taqirsimon, qoldiq sho'rxok tuproqlarda asosiy o'rinni egallaydi. Marsh tuproq-gruntlarida magniy yetakchi o'rinni egallaydi, sho'rxoklarda esa natriy kationlari 45,34-49,99 foizni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Tuproq-grunt qoplamlarini GAT asosida xaritalash**» deb nomlangan bobida Tuproq-gruntlarning qoplamlari, Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarini sho'rlanganlik xaritasi va zaharli tuzlar zaxirasi kartogrammalari, tuproqlarda sahrolanish va degradatsiya jarayonlari keltirilgan (1-rasm).



Tuproq-grunt xaritasida Orol dengizi qurigan tubini g'arbiy qismini 1273456,37 gektar maydoni keltirilgan. Bunda qumli cho'l, taqirsimon, qoldiq o'tloqi, qoldiq botqoq, qoldiq dengiz sho'rxoklari, avtomorf sho'rxoklar, qoldiq sho'rxoklar va dengiz bo'yi atrofida marsh tuproq-gruntlar kompleksi vujudga kelgan va ular asosida tuproq-grunt xaritasi tuzildi. GAT dasturlari asosida elektron xarita yaratish uchun o'rganilgan maydonda tuproq kesma va namunalarini koordinatalarini o'z o'rniga joylashtirgandan so'ng, laboratoriyadan chiqqan ma'lumotlarni MS Excel dasturi yordamida ma'lumotlar Kniga Excel 97-2003 formatiga saqlagan holda ArcGIS desktop 10.8.1. avlodidagi koordinativ joylashuv aniq bo'lgan nuqta shakldagi qatlarga birlashtirildi. Yangi raqamli xaritalarni yaratishda ArsGIS desktop 10.8.1 dasturining interpolatsiya IDW, usullaridan foydalanib yaratildi.

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarining sho'rlanish xaritasi va zaharli tuzlar zaxirasi kartogrammasida Orol dengizi qurigan tubi tuproq-grunt qoplaminig sho'rlanish darajalariga ko'ra, sho'rlanganlik xaritasi keltirilgan. Sho'rlanish darajasiga ko'ra, kuchsiz sho'rlangan maydonlar 292072,64 gektar maydonni egallagan, o'rtacha sho'rlangan maydonlar 70053,32 gektar, kuchli sho'rlangan maydonlar 116308,75 gektarni tashkil etadi. Juda katta maydonlar (795021,66 gektar) juda kuchli sho'rlanganligi aniqlandi va o'rganilgan hududning 1:200000 masshtabli tuproq-grunt sho'rlanish xaritasi tuzildi (2-rasm).



2-rasm. Orol dengizi qurigan tubi g'arbiy qismi tuproq-gruntlarining sho'rlanganlik holati bo'yicha xaritasi

Tuproq-gruntlarda saholanish va degradatsiya jarayonlari deb nomlangan paragrafda Orol dengizi hududida degradatsiya jarayonlari janubdan shimolga tomon kuchayib borishi, sho'rlanish darajasining ortib borishi yillar davomida qoldiq sho'rxoklarda yer osti sizot suvlarining muttasil bug'lanib turishi natijasida, ushbu sho'rxoklarni yuqori qatlamlarida umumiy tuz zaxiralarini ortib borganligi to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Hudud tuproq qoplamlarida deflyatsiya, saholanish va degradatsiya jarayonlari kuchayishi, ekologik muvozanatni keskin o'zgarishiga olib kelmoqda.

Orol dengizi qurigan tubi hududida ekologik muvozanatni yumshatish va degradatsiya jarayonlarini oldini olish uchun, o'rtacha va kuchli sho'rlangan hududlardagi zaharli tuzlar miqdori ortib ketgan, sho'rlangan yer maydonlarida galofit o'simliklarni ekish, qumli yer maydonlarda ya'ni, qumli cho'l tuproqlarida saksovullarni joylashtirish maqsadga muvofiq.

O'tgan 40-yil mobaynida qoldiq sho'rxok, tipik sho'rxok, marsh sho'rxoklarda sho'rlanish jarayonini kuchayib borganligi natijasida sho'rlanishlar miqdorini ortib borganligi qayd etildi.

XULOSALAR

1. Dengiz suvlarini chekinib borish bilan keltirilgan jinslarni transformatsiyasi boshlangan birinchi bosqichda vujudga kelgan marsh sho'rxoklar, ikkinchi bosqichda sho'rxoklar tartibi rivojlangan, uchinchi bosqichda avtomorf tuproqlar shakllangan. Bu tuproqlarni joylashuvi, dengiz suvining chekinib borishiga parallel ravishda kechmoqda.

2. Orol dengizi qurigan tubini g'arbiy qismida jami 1273456,37 gektar yer maydoni bo'lib, tuproqlarning genetik guruhlariga ko'ra, taqirsimonlar 2,56%, qoldiq o'tloqlar 3,9%, o'tloqlar 0,15%, qumli cho'l tuproqlar 14,0%, qoldiq botqoqlar 2,0%, qoldiq o'tloqi sho'rxoklar 8,0%, marshlar 6,5%, qoldiq sho'rxoklar 9,2%, tipik sho'rxoklar 16,7%, marsh sho'rxoklar 29,3%, qoldiq ko'llar 0,7% va qumli yaralmalar 6,99 foizni tashkil etadi.

3. Dengizning qurigan tubi tuproqlar turli darajada sho'rlangan bo'lib, sho'rlanishni vujudga kelishi tuproq osti qatlamlarida sho'rlangan, uchlamchi davr yotqiziqalarini to'planganligi va kuchli bug'lanish natijasida vujudga kelgan. Orol dengizining qurib borishi, hududda tuproq komponentlarining o'zaro bog'liqligi va barqarorligini salbiy tomonga o'zgarishi natijasida, tabiiy muvozanat buzilgan, ba'zi maydonlarda saholanish jarayonlarini kuchayishiga olib kelgan.

4. Orol dengizi qurigan tubining qumli cho'l va marsh sho'rxoklarning mexanik tarkibi tahlil etilganda yirik qum (>0,25mm) zarrachalari o'rtacha 22,5-52,5 foizgachani, taqirsimon tuproqlarda, qoldiq o'tloqlarda, qoldiq botqoqlarda, tipik sho'rxok va qoldiq sho'rxoklarda yirik chang zarrachalari (0,05-0,01mm) o'rtacha 36,6 foizdan 56,7 foizgachani, fizik loy miqdori yuqori qatlamlar bo'yicha o'rtacha 19,1 foizdan 57,5 foizni tashkil etadi.

5. Taqirsimon, qoldiq o'tloqi, qoldiq sho'rxoklar, tipik sho'rxoklarning yuqori qatlamlarida gumus miqdori 0,374 foizdan 1,05 foizgacha, qoldiq botqoq tuproqlarda o'rtacha 1,12 foizni, qumli cho'l, taqirsimon, qoldiq o'tloqi, qoldiq

botqoq, qoldiq sho'rxok va tipik sho'rxoklarda umumiy fosfor miqdori 0,11 foizdan 0,23 foizgachani, umumiy kaliy miqdori 0,180 foizdan 1,680 foizni, yalpi azot o'rtacha 0,018 foizdan 0,099 foizgachani tashkil etadi.

6. Qumli cho'l, marshli, sho'rxoklar, qoldiq sho'rxoklarda, taqirsimon va qoldiq o'tloqi tuproqlarni singdirish sig'imida kationlar yig'indisi 7,19 mg/ekv dan 15,2, ba'zan 19,13 mg/ekv gacha, shundan natriy miqdori 1,34% dan 17,48 bazan 22,01% ni tashkil etib, ular turli darajada sho'rtlashgan.

7. Tuproqlarning 0-100 sm qatlamida umumiy tuzlar zaxirasining tebranish oralig'i 19,38 t/ga dan 705,40 t/ga ni tashkil etadi. Tipik sho'rxoklar, marshli sho'rxok va qoldiq sho'rxoklarda umumiy tuzlar yig'indisidan zaharli tuzlar ulushi 78-89 foizni tashkil etadi. Xlor ioni va barcha tuproq guruhlarida natriy xlor tuzi ustunlik qiladi.

8. Marsh sho'rxoklar dengizga juda yaqin maydonlarda tarqalib, ularda bir yillik galofitlar o'smaydi. Chunki, juda kuchli sho'rlangan bo'lib, tuzlarning quruq qoldig'i o'rtacha 4,348-5,632% ni tashkil etadi. Grunt suvlari yaqin bo'lganligidan, bu sho'rxoklarda qatqaloq qatlam hosil bo'lmaydi. Tuproqlarning yuza qismida tuzlarning miqdori 3-10% atrofida, sho'rlanish tipi sulfat-xloridli.

9. Orol dengizi qurigan tubidagi gidromorf va avtomorf tuproqlarini xossa-xususiyatlari va meliorativ holatiga oid eng yangi ma'lumotlar asosida, qishloq xo'jaligi (ihota) ekinlarini tuproq guruhleri, sho'rlanganlik darajasi, zaharli tuzlar tarqalgan hududlar va yer osti suvlari sathini hisobga olgan holda joylashtirish ishlarini olib borish hamda tuzilgan xaritalarda belgilangan takliflar asosida ekologik muvozanatni tiklashga tavsiy etiladi.

10. Dengizining qurigan tubining g'arbiy qismidagi 1273456,37 gektar tuproq qoplamlarini 1:200000 masshtabli «Tuproq-grunt xaritasi», «Sho'rlanish» va «Zaharli tuzlar zaxirasi kartogramma»lari tuproq degradatsiyasini oldini olish va qayta tiklash, muhofazalash hamda yer resurslaridan samarali foydalanish, zaharli tuzlar tarqalgan hududlar, yer osti suvlari sathini hisobga olgan holda o'simliklarni joylashtirish tavsiya etildi.

11. Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarning xossa-xususiyatlariga oid olingan ma'lumotlar, OO'Yu muassasalarida tuproqshunos-agrokimyogarlarni tayyorlashda, meliorativ-tuproqshunoslik, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kurslarida ma'ruzalar o'qishda foydalanish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.25/30.12.2019.QX/В.43.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ПОЧВОВЕДЕНИЯ И АГРОХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ**
**ИНСТИТУТ ПОЧВОВЕДЕНИЯ И АГРОХИМИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ**

КАТТАЕВА ГУЛНОЗА НОРКУЛОВНА

**ГЕНЕТИЧЕСКИЕ, ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕЛИОРАТИВНЫЕ
ОСОБЕННОСТИ ПОЧВОГРУНТОВ ОБСОХШЕГО ДНА
АРАЛЬСКОГО МОРЯ (НА ПРИМЕРЕ ЗАПАДНОЙ ЧАСТИ)**

03.00.13 – «Почвоведение»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан №B2022.4.PhD/B855

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Институте почвоведения и агрохимических исследований.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) выполнен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.soil.uz) в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Исмонов Абдувахоб Жураевич
Кандидат биологических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Артикова Хафиза Гуймурадовна
доктор биологических наук, профессор
Бухарский государственный педагогический институт
Мирзамбетов Абдурашит Базарбаевич
доктор философии по сельскохозяйственным наукам, доцент
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «25» 04 2024 г. в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 при Институте почвоведения и агрохимических исследований (Адрес: 100179, г. Ташкент, Алмазарский район, улица Камарнисо, дом 3. Тел.: (+99871) 246-09-50; факс: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz.

